

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

No 5

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCES

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDU
DAVLET IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931

TDU
DAVLET IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TULON KARIMOV NOMIDADI
TOSHKENT DAVLAT TECHNIKA UNIVERSITETI
1955

TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TDF
TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI

TAT
TOSHKENT
AKHITURA-QURILISH
UNIVERSITETI

TJZP
TOSHKENT KIYLO - TEKNOLOGIYA
INSTITUTI
1991

TJZP
TOSHKENT POLYTECHNICK INSTITUTE
1991



MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otobek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqla-rining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

- 08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integrat-siya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagи 360/5-son qarori bilan
“Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Mahalliy budgetlar daromadlarini oshirish imkonoyatlari	12
Soatova Nodira Boboxanova	
Bank aksiyalarining bozor bahosini shakllantiruvchi omillar va baholash metodologiyasi	18
Raxmatov Azizjon Jaloliddinovich, Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
Namangan viloyatida kichik biznes subyektlarini yanada rivojlantirish va ular samaradorligini oshirish.....	23
Jalolova Muazzamxon Akbarjonova	
Kichik biznesni tijorat banklari tomonidan moliyalashtirishning o'ziga xos jihatlari	31
Nematulloyev Suxrob Sobirovich	
Qayta tiklanadigan vodorod narxlari strategiyasini o'rganish: xarajat noaniqliklarini bartaraf etish	35
Nuraliyeva Komila Sanakulova	
Prospects for improving the efficiency of deposit operations in commercial banks	42
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
Bank tizimida moliyaviy innovatsiyalar va raqamlı texnologiyalar mohiyati va ahamiyati.....	51
Xodjimamedov Akmal Ashurovich, Umedov Abdullo Umedovich	
Elektron tijoratnini rivojlantirishni boshqarish samaradorligini baholash natijalari tahlili.....	57
Madieva Zuxra Iskandarbekova	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xotin-qizlar barqaror ish bilan bandligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	63
Xoliyorova Shoxista Qahramon qizi	
Qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamlı texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	70
Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li	
The role of sports marketing in training leadership personnel in the sports management system.....	75
B.Y.Hamraev	
Sanoat korxonalarida quyosh energiyasidan foydalanish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari	79
Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi	
Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni davlat tomonidan tartibga solish konsepsiysi	85
Normurodov Xusan Eshmaxmatovich	
Роль центрального банка в контроле инфляции: политика инфляционного таргетирования	95
Камилова Наргиза Абдукахоровна, Пиримкулов Фирдавс Шухратович	
Ko'pkari ot sporti o'yini chavandozlari sport kiyimini ishlab chiqish uchun tavsiya etilayotgan matolarning xususiyatlari tahlili	102
Musayeva Lobar Sayfullayevna, Po'latova Saboxat Usmanova	
Оценка технико-экономических показателей автономной фотоэлектрической установки с устройством очистки от снега.....	107
Юлдошев Исройл Абриевич, Рустамова Шахноза Шухрат кизи, Ботиров Бозорбек Мусурмон угли, Жураев Обид Шавкатович, Атоева Мохинур Амриллаевна	



Some considerations about the specific features of advertising texts	116
Mustaqimova Kunduz Sobirovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank xizmatlari amaliyoti tahlili.....	121
Tangriev Izzat Raxmatullaevich	
Fransuzcha va o'zbekcha terminlar vektori asosidagi semantik o'xshashlik.....	125
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Abduauxadova Zilola Jamoliddinovna	
Sayyohlik tilining raqamli tadqiqi: fransuz va o'zbek terminlarining multimodal vektor va vizual xaritalanishi.....	131
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
Обеспечение финансовой устойчивости предприятий: проблемы и решения	136
Аллаберганов Зокир Гойибович	
Qurilish korxonalarini boshqarishning tashkiliy mexanizmlarini shakllantirishdagi muammolar	142
Alijonov Jamshid Alijon o'g'li	
Innovatsion startaplarni moliyalashtirishda venchur kapitali	149
Bozorova Ozoda Raximovna	
Pul-kredit siyosati orqali iqtisodiyotni tartibga solish	154
Berdiyev Akram O'ktamovich	
Yashil buxgalteriya hisobi va ekologik masalalarga oid xalqaro talablar va yondashuvlar	163
Eshquvvatova Muxlisa Avaz qizi	
Sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlari auditida muhimlik va risk darajasini aniqlash uslubiyotini takomillashtirish	169
Abduraimova Maftunaxon Axmatovna	
Chizmägeometriya fanida gamifikatsiya va didaktik o'yinlarning samaradorligi.....	174
Yo'ldashev Solmonjon Iqboljon o'g'li	
Tijorat banklarining nodepozit moliyaviy resurslarini optimallashtirish	179
Tangirkulov Bekzod Boxadirovich	
Теоретические аспекты, причины и специфика безработицы (на примере Республики Узбекистан)	186
С.Э. Холмуратов	
Xalqaro oziq-ovqat bozoridagi raqobat sharoitida meva-sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirishga oid xorij tajribalari	191
Mengnorov Almardon Abdirahmonovich	
O'zbekistonning butunjahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonlari va uning soliq tizimiga ta'siri.....	202
Qurbanov Muxiddin Abdullaevich	
Qoraqalpog'istonda mehmonxona xo'jaligining hozirgi holati tahlili	207
Xalimova Fayoza Nafasovna	
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati.....	212
Norboyeva Mahliyo Rustamovna, Komiljon Baxromov Muzaffar o'g'li	
Method of drying melon using solar radiation and a household solar-infrared dryer	216
Khakimova Sabina Shamsiddin qizi, Qodirov Jobir Ro'zimamatovich, Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, Yangiboyev Fayoz G'aybulla o'g'li	
Qishloq xo'jaligi tarmog'ini moliyalashtirish istiqbollari	227
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	



Влияние розничного кредитования на потребительский спрос	231
Базарова Нигора Равшановна	
Прямые иностранные инвестиции как основной фактор повышения конкурентоспособности экономики стран	238
Наврузов Икрам Абдуллаевич	
Qishloq xo'jaligini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish	243
Ishniyazov Baxrom Normamatovich	
Tayyor mahsulotlar hisobi bo'yicha xorij tajribasi va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	248
Xotamov Alisher Xotamjon o'g'li, Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
Sanoat korxonalarida asosiy vositalar qadrsizlanishi va eskirishini hisobga olishni optimallashtirish.....	255
Kurbanova Shaxrinoz Avazxonovna	
Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish	262
Tulovov Erkinjon To'lqin o'g'li, Shanasirova Nodira Abdullayevna	
Digital transformation in public sector: advantages and challenges of the integration.....	266
Abdurakhmanova Sevinch	
Стратегическое планирование и предсказание результатов деятельности организаций.....	271
Алимов Бехзоджон Наврузжонович	
Влияние привлечения инвестиций в национальную экономику на повышение конкурентоспособности предприятий.....	277
Каримова Диляфруз Садирдин кизи	
Nomoddiy aktivlar auditida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	283
Rozmatova Umida Yuldashevna	
To'g'ridan-to'g'ri sug'urtalash operasiyalar bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirishni xalqaro standartlar asosida tashkil etish.....	290
X.A.Raximov	
"Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihibalarini moliyalashtirishning innovasion mexanizmlari va normativ asoslari"	294
Karabaev Sanjar Abdusamatovich	
Tibbiyot muassasalarida iqtisodiy barqarorlikning dinamik tahlili	302
Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich	
Korxona faoliyatini optimallashtirishdagi iqtisodiy tahlilning roli va ahamiyati.....	308
Sattorov Mirjahon	
Роль контекстного маркетинга в условиях ограниченной аудитории и дефицита ресурсов.....	313
Дебердиев Анвар	
O'zbekistonda korxonalarning iqtisodiy barqarorligini raqamli texnologiyalar yordamida oshirish	319
Iminova Nargizaxon Akramovna, Mo'ydinov Ma'murjon Mansurjon o'g'li	
Jahon amaliyotida eksport moliyalashtirishi: uning shakllari, afzallikkleri va kamchiliklari	328
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Ramli transformatsiya va korxonaning barqarorligi	333
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish.....	342
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	



Роль цифровой эпохи в банковской сфере	346
Максудова Шахзода	
Yashil iqtisodiyotda innovatsiyalar va ekologik barqarorlik.....	350
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy modernizatsiya va uning davlat rivojlanishiga ta'siri	355
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Международный опыт: применение корпоративного менеджмента в государственном управлении развитых стран	360
Махмудова Севара Улугбековна	
Carbon markets and agribusiness: assessing the role of emissions trading in promoting sustainable agricultural practices.....	366
Mubina Toirova	
Standartlashtirishda nanotexnologiyalarning o'rni va ahamiyati	371
Ahmedova Sitora Asqar qizi	
Sut mahsulotlarini saqlash jarayonini boshqarish tizimining barqarorlik masalasi.....	376
Sabirov Ulugbek Kuchkarovich, Oqilov Azizbek Kozimjon o'g'li	
Kredit risklarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni.....	392
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Alyuminiy ion energiya saqlaydigan qurilmalarning afzallikkleri	399
Bafoyev Abduhamid Hoshim o'g'li	
Buxgalteriya axborotining investisiya qarorlarga ta'siri.....	403
Rahmatova Shahnoza Shukurovna	
Комплексный подход к оценке и обеспечению финансовой безопасности текстильных предприятий.....	408
Tursunov Bobir Ortikmirzaevich	
Markaziy osiyo mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish: O'zbekiston tajribasi bilan solishtirma tahlil.....	416
Aliyev Arslon Salom o'g'li	



MARKAZIY OSIYO MAMLAQATLARIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARINI MOLIYALASHTIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI BILAN SOLISHTIRMA TAHLIL

Aliyev Arslon Salom o'g'li

Renessans ta'lif universiteti

Moliya va kredit kafedrasi assistent o'qituvchisi

ORCID: 0009-0004-1186-2770

arslonaliyev70@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarini (NNT) moliyalashtirish tizimi, moliyaviy manbalari va ularni qo'llab-quvvatlash siyosati tahlil qilinadi. O'zbekiston tajribasi asosida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonning NNT sektorini moliyalashtirishdagi yondashuvlari solishtirma tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, xalqaro donorlar, grantlar, davlat subsidiyalari va ijtimoiy buyurtmalar orqali amalga oshirilayotgan moliyalashtirish shakllari o'rganiladi. Maqolada har bir davlatdagi ilg'or amaliyotlar va O'zbekiston sharoitida tatbiq etilishi mumkin bo'lgan samarali mexanizmlar bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, moliyalashtirish, davlat grantlari, xalqaro donorlar, Markaziy Osiyo, solishtirma tahlil, fuqarolik jamiyat.

Abstract: This article analyzes the financing system, sources, and government support policies for non-governmental non-profit organizations (NGOs) in Central Asian countries. Based on Uzbekistan's experience, it provides a comparative analysis of the approaches to NGO sector financing in Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan. The study also examines various financing mechanisms such as international donor support, grants, state subsidies, and social contracting. The article recommends best practices from each country that could be effectively applied in the context of Uzbekistan.

Keywords: NGO, financing, government grants, international donors, Central Asia, comparative analysis, civil society.

Аннотация: В данной статье анализируется система финансирования, источники и государственная политика поддержки неправительственных некоммерческих организаций (ННПО) в странах Центральной Азии. На основе опыта Узбекистана проводится сравнительный анализ подходов к финансированию сектора ННПО в Казахстане, Кыргызстане, Таджикистане и Туркменистане. Также рассматриваются формы финансирования через международные доноры, гранты, государственные субсидии и социальные заказы. В статье предлагаются эффективные механизмы, применяемые в других странах, которые могут быть адаптированы для Узбекистана.

Ключевые слова: ННПО, финансирование, государственные гранты, международные доноры, Центральная Азия, сравнительный анализ, гражданское общество.



KIRISH

So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlarida fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda jamiyatning barcha qatlamlarini jalg qilish va ijtimoiy sheriklik tamoyillarini kengaytirish masalalari dolzarb bo'lib bormoqda. Bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda. Ular aholini ijtimoiy himoyalash, ekologiya, sog'liqni saqlash, ayollar va yoshlar huquqlarini ilgari surish kabi ko'plab yo'nalishlarda faoliyat yuritib, davlat va jamiyat o'rtaсидаги ко'пrik vazifasini bajaradi.

Ammo NNTlar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda asosiy omil – moliyalashtirish tizimining samaradorligi hisoblanadi. Bu borada Markaziy Osiyo mamlakatlarda turli yondashuvlar shakllangan bo'lib, ular o'zining ijtimoiy-siyosiy konteksti, iqtisodiy rivojlanish darajasi va xalqaro hamkorlik salohiyatiga qarab farqlanadi.

Bugungi kunda NNTlarning moliyaviy mustaqilligi va ularning faoliyatining doimiyligi ta'minlanmayapti. Moliyalashtirishdagi donorlarga qaramlik, davlat grantlarining yetarli emasligi va soliqqa oid imtiyozlarning cheklanganligi bu sektorda faoliyat yuritayotgan ko'plab tashkilotlarning o'z vazifalarini samarali bajarishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, har bir mamlakatda mavjud tizimlarni tahlil qilish va O'zbekiston tajribasini Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan solishtirish orqali ilg'or amaliyotlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – Markaziy Osiyo mamlakatlarda NNTlarni moliyalashtirish tizimlarini o'rganish, ularni O'zbekiston tajribasi bilan taqqoslab, samarali yondashuvlarni aniqlash va O'zbekiston sharoitida tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MAVZUGA OID ABIYOTLAR SHARHI

Markaziy Osiyo mamlakatlarda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNT) faoliyatini moliyalashtirish masalasi ilmiy doirada tobora dolzarb mavzuga aylanmoqda. Bu borada xalqaro va mintaqaviy miyosda olib borilgan tadqiqotlar, xususan Qozog'iston, Qirg'iziston, O'zbekiston kabi mamlakatlarda NNTlar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilgan.

Qozog'istonda NNTlarni qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanishini tadqiq qilgan Gulmira Ileuova o'z ishlarida davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar orqali NNTlarning moliyaviy imkoniyatlari kengaytirilganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni anglatadiki, Qozog'istonda 2010-yildan boshlab "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jamg'armasi" orqali NNTlarga ajratilgan grantlar hajmi yil sayin ortib bormoqda. Ushbu tajriba NNTlar uchun davlat bilan barqaror hamkorlik modelini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

Qirg'iziston tajribasi esa xalqaro donorlar bilan faol aloqalarni o'z ichiga oladi. Elmira Nogoibaeva boshchiligidagi "Polis Asia" markazi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, xususan "Qirg'izistonda fuqarolik jamiyatining rivojlanish strategiyasi"da ayttilishicha, bu mamlakatda xorijiy grantlar hisobiga faoliyat yuritayotgan NNTlar soni yuqori bo'lib, ular ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, ayollar va yoshlar bilan ishlash, ekologiya kabi yo'nalishlarda yetakchi o'rinni egallaydi.

O'zbekiston kontekstida, so'nggi yillarda NNTlarning huquqiy maqomini mustahkamlash, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq harakatlar ko'zga tashlanmoqda.

Shuningdek, Alisher Ilxomov tomonidan o'rganilgan tadqiqotlarda O'zbekistonda NNTlarning moliyaviy manbalarining torligi, ularning ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda davlat bilan integratsiyalashuv darajasi pastligi ko'rsatilgan. Uning fikricha, bu holatni bartaraf etish uchun davlat-NNT sektorlararo hamkorlikni mustahkamlash zarur.

Bundan tashqari, xalqaro tajribani tahlil qilgan holda, Thomas Carothers tomonidan ilgari surilgan "demokratik yordam" nazariyasiga ko'ra, avtoritar yoki yarim-avtoritar rejimlarda NNTlarni moliyalashtirishdagi asosiy xavf – bu resurslar ustidan davlat nazoratinining kuchayishidir. O'zbekiston holatida ham, nodavlat tashkilotlar faoliyatining litsenziyalanishi, hisoboti va moliyaviy manbalariga oid tartiblar ushbu xavfni yoritadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan "Strengthening Civil Society" dasturi doirasidagi kuzatuvlarda ham O'zbekistondagi NNTlar o'z faoliyatini kengaytirishda byurokratik to'siqlarga duch kelayotganini ko'rsatgan. Bu esa, moliyalashtirish tizimining faqat qonunchilik asosida emas, balki real amaliyotda ham liberallahuvini taqozo qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Markaziy Osiyo mamlakatlarda NNTlar uchun moliyalashtirish manbalarining xilma-xilligi, ularni boshqarishdagi institutsional yondashuvlar va davlat-NNT hamkorligi darajasi turliha. O'zbekiston hozirda o'tish davrini boshdan kechirmoqda – moliyaviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ asoslar ishlab chiqilgan, ammo bu mexanizmlarning to'laqonli ishlashi hali dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar kontent tahlili va solishtirma tahlil usullari orqali yig'ildi. Markaziy Osiyo davlatlaridagi amaldagi qonunchilik hujjatlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va mavjud ilmiy adabiyotlar



o'rganildi. Tahlil jarayonida O'zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar bilan qiyosiy ravishda baholab chiqildi, asosiy farqlar va o'xshashliklar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) – bu daromad olishni asosiy maqsad qilib qo'yagan, fuqarolik jamiyatni vakillarining ixtiyoriy ishtiroki asosida tashkil etiladigan va ijtimoiy, madaniy, ekologik, huquqiy yoki boshqa muhim ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan tuzilmalardir. NNTlarning samarali faoliyat yuritishi uchun moliyaviy barqarorlik muhim ahamiyatga ega. Moliyalashtirish manbalari esa ularning tashkiliy shakli, faoliyat yo'nalishi va geografik joylashuviga qarab farqlanadi. Asosiy moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

Davlat grantlari va subsidiyalari. Davlat budgetidan ajratiladigan grantlar NNTlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi va Adliya vazirligi huzuridagi grantlar platformasi orqali NNTlarga mablag' ajratiladi. Bu grantlar odatda aniq loyihalarni amalga oshirish yoki ustuvor ijtimoiy muammolarni hal etishga yo'naltiriladi.

Xalqaro donorlar va grantlar. Ko'plab xalqaro tashkilotlar – jumladan, UNDP, USAID, GIZ, [Soros jamg'armasi] – O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar, inson huquqlari, atrof-muhit muhofazasi yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan NNTlarni moliyalashtirishga hissa qo'shadi. Ushbu grantlar NNTlar uchun nafaqat moliyaviy yordam, balki xalqaro tajriba almashinuvi va institutsional rivojlanish imkonini ham beradi.

Ijtimoiy buyurtmalar. Davlat tomonidan nodavlat sektorga ijtimoiy xizmatlarni topshirish orqali amalga oshiriladigan moliyalashtirish shaklidir. Ijtimoiy buyurtmalar orqali NNTlar ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, ta'lif va boshqa sohalarda xizmatlar ko'rsatadi. Bu davlat-xususiy sheriklikning bir ko'rinishi sifatida baholanadi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlari fuqarolik jamiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Har bir davlatda bu sohaga bo'lgan yondashuv ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, xalqaro hamkorlik darajasi va iqtisodiy infratuzilmaga bog'liq holda shakllanmoqda. Quyida Qozog'iston, Qирг'изистон, Тоҷикистон ва Туркманистон тajribalari asosida NNTlarni moliyalashtirishga oid qonunchilik va amaliy jihatlar tahlil qilinadi.

Qozog'iston tajribasi. Qozog'iston Respublikasi nodavlat notijorat sektorini rivojlantirishga davlat darajasida strategik yondashadi. Mamlakatda NNTlarni moliyalashtirishning asosiy manbai sifatida ijtimoiy buyurtmalar tizimi va davlat grantlari mavjud bo'lib, ular "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida" (2015-yil) hamda "Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi qonunlar bilan huquqiy jihatdan kafolatlangan.

Davlat har yili NNTlar orqali ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish uchun mablag' ajratadi. 2022-yilda ushbu yo'nalishda 30 milliard tenge (taxminan \$65 million) miqdorida mablag' ijtimoiy buyurtmalar orqali taqsimlangan. Bunda ijtimoiy muammolarga yechim topishga qaratilgan loyihalarga, ayniqsa ekologiya, ayollar huquqlari, yetim bolalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash sohalariga ustuvorlik beriladi.

NNTlar o'z faoliyati yuzasidan davlatga hisobot beradi. Biroq bu jarayon raqamlashtirilgan bo'lib, byurokratik to'siqlar minimal darajaga tushirilgan.

Afzalliklar:

Grant ajratish jarayoni ochiq va shaffof;
Qonunchilik mustahkam;
Raqamli hisobot tizimi mavjud.

Kamchiliklar:

Donorlar bilan hamkorlik ba'zan siyosiy cheklowlarga duch keladi;
Moliyalashtirish ko'proq yirik NNTlar orasida taqsimlanadi.

Qирг'изистон тajribasi. Qирг'изистон Respublikasida NNTlar demokratik institutlarning ajralmas qismi sifatida qaraladi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan NNTlar soni 15 mingdan ortiq bo'lib, ularning katta qismi xalqaro donorlar tomonidan moliyalashtiriladi. USAID, GIZ, UNDP, DFID va boshqa yirik donorlar Qирг'изистонда inson huquqlari, gender tengligi, sog'liqni saqlash va ta'lif sohalarida ko'plab loyihalarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda.

Davlat grantlari tizimi mavjud emas yoki juda cheklangan. Biroq NNTlar uchun soliq imtiyozlari, jumladan xayriya mablag'laridan olinadigan soliqlardan ozodlik shaklida rag'batlantirish choralar mavjud. Qonunchilik NNTlar faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi va ularning mustaqilligini kafolatlovchi shaklda ishlab chiqilgan.

Afzalliklar:

Donor mablag'lariga keng kirish imkonii mavjud;
Qonunchilik liberal lashgan;
Soliq imtiyozlari amalda.
Kamchiliklar:
Moliyalashtirishda davlatning ishtiroki sust;
Donor grantlariga yuqori darajadagi qaramlik mavjud.
Tojikiston va Turkmaniston amaliyoti



Tojikistonda NNTlar faoliyati cheklangan va qat'iy siyosiy nazorat ostida olib boriladi. Garchi xalqaro donorlar (UNICEF, USAID, Caritas, ACTED) tomonidan ayrim loyihamalar moliyalashtirilayotgan bo'lsa-da, ular ko'pincha qattiq litsenziyalash va ro'yxatdan o'tkazish tartiblariga duch keladi. Davlat grantlari tizimi mavjud emas. NNTlar, odatda, xayriya mablag'lari yoki cheklangan hajmdagi xalqaro grantlar orqali moliyalashtiriladi. Soliq imtiyozlari esa amalda yo'q.

Turkmanistonda esa NNT sektori deyarli mavjud emas darajada. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda atigi 150 ga yaqin NNT ro'yxatga olingan bo'lib, ularning ko'pchiligi hukumat bilan bevosita bog'liq yoki davlat nazorati ostida faoliyat yuritadi. Xalqaro donorlarning faoliyati keskin cheklangan, mustaqil NNTlar uchun moliyalashtirish manbalari deyarli mavjud emas.

Afzalliklar (cheklangan):

Tojikistonda ba'zi yo'nalishlarda xalqaro grantlar mavjud.

Kamchiliklar:

Qonunchilikda fuqarolik jamiyati uchun erkinliklar mavjud emas;

Soliq yengilliklari va grant tizimi yo'q;

NNTlarni ro'yxatdan o'tkazish jarayoni murakkab va byurokratik.

O'zbekiston tajribasi

O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish tizimi so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashdi. Bu esa davlat siyosatining ijtimoiy sheriklik tamoyillari asosida shakllanayotganini ko'rsatadi. Amaldagi tizimda NNTlar uchun quyidagi moliyaviy manbalar mavjud: davlat grantlari, xalqaro donorlar mablag'lari, ijtimoiy buyurtmalar va xayriya yordamlari.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi, Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan ajratilayotgan grantlar orqali NNTlar ijtimoiy muammolarni hal etishda faol ishtirok etmoqda. Bundan tashqari, USAID, UNDP, GIZ kabi xalqaro donorlar bilan hamkorlik asosida gender tengligi, ekologiya, sog'liqni saqlash, huquqiy savodxonlik kabi yo'nalishlarda loyihamalar moliyalashtirilmoqda (1-jadval).

1-jadval. Markaziy Osiyo davlatlarida NNTlarni moliyalashtirish: SWOT tahlil (davlatlar kesimida)

Mamlakat	Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)	Imkoniyatlar (O)	Tahdidlar (T)
Qozog'iston	- Ijtimoiy buyurtma tizimi mavjud - Qonunchilik barqaror - Grantlar ochiq tanlov orqali beriladi	- Katta NNTlar ustunlikka ega - Mahalliy NNTlar grant olishda cheklangan	- Raqamli grant platformasini rivojlantirish - Mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish	- Siyosiy o'zgarishlar moliyaviy siyosatga ta'sir qilishi mumkin
Qirg'iziston	- Donor grantlariga keng kirish - Erkin ro'yxatdan o'tish - Qonunchilik soddaligi	- Davlat grantlari cheklangan - Moliyalashtirish donor grantlariga qaram	- Mahalliy moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish - Ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish	- Donor siyosatidagi o'zgarishlar moliyaviy xavfsizlikni susaytirishi mumkin
O'zbekiston	- Davlat grantlari mavjud (EYOF) - Xalqaro donorlar faol - Yangi qonunlar qabul qiliinmoqda	- Soliq imtiyozlari cheklangan - Monitoring tizimi to'liq raqamlashtirilmagan	- Ijtimoiy buyurtma tizimini kengaytirish - Crowdfunding platformalarini rivojlantirish	- Qonunchilikdagisi noaniqliklar - Donorlar faoliyati ustidan byurokratik to'siqlar
Tojikiston	- Ba'zi donorlar (UNICEF, Caritas) faol - Ekologik va sog'liqni saqlash loyihamalar mavjud	- Davlat grantlari mavjud emas - NNTlar ro'yxatdan o'tishda to'siqlarga duch keladi	- Huquqiy erkinlikni oshirish - Xalqaro donorlar bilan barqaror aloqalarni o'rnatish	- NNTlar ustidan qat'iy nazorat - Donor grantlari cheklanishi mumkin
Turkmaniston	- (Amalda kuchli tomonlar mavjud emas)	- NNT faoliyatiga ruxsat cheklangan - Donorlar faoliyati taqilangan - Grantlar yo'q	- NNTlar sektorini rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikni boshlash - Yangi qonunchilik tashabbuslari	- Siyosiy qat'iylik - Fuqarolik jamiyatining cheklanishi - Xalqaro izolyatsiya



Markaziy Osiyo mamlakatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish bo'yicha o'tkazilgan SWOT tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, mintaqada bu soha bo'yicha yondashuvlar va amaliyotlar sezilarli darajada farqlanadi.

Qozog'iston va Qirg'iziston mamlakatlari kuchli tomonlarga ega bo'lib, NNTlarni qo'llab-quvvatlashda davlat grantlari, ijtimoiy buyurtmalar, erkin qonunchilik hamda donor grantlaridan samarali foydalanish imkoniyatlariga egadir. Bu davlatlarda fuqarolik jamiyatini shakllantirish va barqaror moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish yo'lga qo'yilgan.

Tojikiston va Turkmaniston holatlarida esa NNTlarning moliyaviy va institutsional imkoniyatlari keskin cheklangan. Bu davlatlarda mustaqil fuqarolik jamiyatini shakllantirish uchun zarur infratuzilmalar yetarli emas. Grantlar, ijtimoiy buyurtmalar va soliq yengilliklari tizimi yo'q yoki minimal darajada. Bunday sharoitda NNTlar ko'pincha faoliyat yurita olmaydi yoki faqat cheklangan yo'nalishlarda ishlaydi.

SWOT tahlil shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy integratsiya, ilg'or tajribalarni almashish hamda xalqaro donorlar bilan strategik hamkorlikni kuchaytirish orqali barcha davlatlar, ayniqsa O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston o'zlarining zaif tomonlarini imkoniyatga aylantirishlari mumkin. Bu esa nafaqat NNTlarning moliyaviy barqarorligini oshiradi, balki fuqarolik jamiyatni institutlarini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar:

Markaziy Osiyo mamlakatlarida NNTlarni moliyalashtirish mexanizmlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bu sohada mavjud yutuqlarga qaramay, barqarorlik va institutsional mustahkamlarni ta'minlovchi mexanizmlar hali to'liq shakllanmagan. Xususan, O'zbekiston tajribasi misolida, davlat grantlari va donor mablag'lari mavjud bo'lsa-da, ularning samarali taqsimlanishi, moliyaviy monitoring, soliq yengilliklari va qonunchilik asoslari borasida qator muammolar mavjudligi aniqlanmoqda. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ilgari suriladi:

Birinchidan, NNTlar faoliyatini moliyalashtirishda manbalarni diversifikasiya qilish zarur. Bu, bir tomondan, donor grantlariga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi, ikkinchi tomondan esa mahalliy xususiy sektor, jamg'armalar, jamoaviy moliyalashtirish (crowdfunding) hamda xizmat ko'rsatish asosida daromad topish mexanizmlarini kengaytiradi. Bunday yondashuv NNTlarning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi va ular uchun moliyaviy xavfsizlik kafolatini yaratadi.

Ikkinchidan, davlat – NNT – donor uchlik modeli asosida ijtimoiy sheriklik tizimini kuchaytirish lozim. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash va normativ-huquqiy asos yaratish, NNTlar tomonidan ehtiyojlarni aniqlash va bevosita ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, donorlar tomonidan esa texnik va metodologik yordam ko'rsatish orqali ko'p tomonlama barqaror hamkorlikni shakllantirish mumkin. Bunday model doirasida grantlar taqsimoti shaffof, natijalar esa monitoring asosida baholanadi.

Uchinchidan, qonunchilik bazasini takomillashtirish eng muhim yo'nalishlardan biridir. Jumladan, "Nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish to'g'risida" maxsus qonunni ishlab chiqish va unda grantlar, ijtimoiy buyurtmalar, soliq imtiyozları, xayriya faoliyati va moliyaviy hisobot bo'yicha aniq mexanizmlarni belgilash lozim. Shuningdek, donor grantlaridan foydalanishda hisobot topshirish jarayonlarini raqamlashtirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va yagona elektron platforma yaratish tavsiya etiladi.

Nihoyat, monitoring va baholash tizimini mustahkamlash zarur. Har bir moliyaviy qo'llab-quvvatlangan loyiha bo'yicha aniq indikatorlar, maqsadli natijalar va jamoatchilikka ochiq axborotlar orqali hisobdorlikni kuchaytirish davlat, donor va jamiyat o'rtaida ishonch muhitini mustahkamlaydi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo davlatlarida nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish sohasida mavjud farqlar va muammolarni aniqlashga imkon berdi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qozog'iston va Qirg'iziston davlatlari bu yo'nalishda nisbatan ilg'or tajribaga ega bo'lib, davlat grantlari va xalqaro donorlar bilan hamkorlikni tizimli asosda yo'lga qo'ygan.

O'zbekiston esa bu borada o'tish davrini boshdan kechirmoqda – qonunchilik bazasi yangilanmoqda, yangi normativ-huquqiy hujjalarni qabul qilinmoqda, biroq ularni amaliyotga to'liq joriy qilish hali dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tojikiston va Turkmaniston holatida esa NNTlar faoliyatini moliyalashtirish va ularni institutsional qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari keskin cheklangan. Bunday muhitda mustaqil fuqarolik jamiyatining rivojlantishi sezilarli darajada to'siqlarga uchramoqda.

SWOT tahlil mintaqaviy darajadagi kuchli va zaif tomonlarni, mavjud imkoniyatlar hamda tahdidlarni aniqlash orqali har bir davlat uchun alohida va mintaqaviy strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Ayniqsa, O'zbekiston uchun ilg'or tajribalardan foydalangan holda ijtimoiy sheriklikni rivojlantirish, soliq imtiyozlarini joriy etish, xalqaro donorlar bilan uzoq muddatli strategik hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda raqamli grant va monitoring tizimlarini yaratish kabi yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, nodavlat notijorat sektorining moliyaviy barqarorligi – fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevoridir. Markaziy Osiyo mamlakatlarida ushbu sohaga oid tizimli yondashuvlar, qonunchilik islohotlari va mintaqaviy hamkorliklar orqali NNT sektorini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish imkoniyati mavjud.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-martdagи "Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha 2019–2021-yillarga mo'ljallangan Milliy harakatlar dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4235-sonli qarori.
2. Qozog'iston Respublikasi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni, 2015-yil.
3. Qirg'iziston Respublikasining "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonuni, 1999-yil.
4. Tojikiston Respublikasining "Jamoat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni, 2007-yil.
5. USAID (2023). Supporting Civil Society and NGOs in Central Asia. Annual report. www.usaid.gov
6. UNDP Uzbekistan (2022). Cooperation with Civil Society Organizations. Tashkent: UNDP Uzbekistan Country Office.
7. GIZ Uzbekistan (2021). Civil Society Landscape in Uzbekistan: Opportunities and Barriers. Berlin: Deutsche Gesellschaft für Internationale Zusammenarbeit (GIZ).
8. Aliyev A.S. (2024). Markaziy Osiyo davlatlarida nodavlat tashkilotlarini moliyalashtirish: O'zbekiston tajribasi bilan solishtirma tahlil. – Renessans ta'lim universiteti, Moliya va kredit kafedrasi ilmiy maqolasi.
9. Caritas Internationalis (2022). NGO Involvement in Social Protection Systems in Central Asia. Geneva: Caritas Publications.
10. OECD (2020). Social Contracting and Public–Private Partnerships in Social Services: Comparative International Review. Paris: OECD Publishing.
11. Eurasia Foundation (2021). The Role of NGOs in the Post-Soviet Space: Challenges and Progress. Washington, D.C.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. May. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100